

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova		
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317	
G.M.Xoшимов		
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербальным компонентом темпоральности.....	322	
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxarov		
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329	
M.Sharipova		
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334	
A.O'.Abdullayev		
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337	
O'.A.Xudoynazarova		
Islom ta'lomi asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344	
F.R.Turg'unova		
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349	
M.A.Abduvaxobova		
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354	
M.A.Kurbanov		
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi	358	
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova		
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364	
M.Karimov		
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368	
X.P.Муртозов		
Вижагиҳои савтий ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс	374	
N.N.Odilova		
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384	
M.B.Shamsiyeva		
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida	388	
I.T.Rustamov		
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392	
К.Ю.Феруза		
Многоаспектная природа английских и русских провербальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396	
С.Э.Сайдова		
Манзараи этнӣ-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ	401	
G.A.Komilova		
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406	
С.Ч.Мачитова		
Антрапонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдураҳмони чомӣ	410	
M.A.Matmusayeva		
Maktabgacha ta'lilda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419	
Y.Sh.Shuxratova		
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423	
H.H.Xoldorova		
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426	
D.I.Mirzayeva		
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english	429	
K.T.Israillova		
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi	432	



**NEOLOGIZM – KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA TAHLIL BIRLIGI SIFATIDA
НЕОЛОГИЗМ КАК ЕДИНИЦА АНАЛИЗА В КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ
NEOLOGISM AS A UNIT OF ANALYSIS IN COMPUTATIONAL LINGUISTICS**

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi¹

¹O'zbekiston milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasи mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li²

²O'zbekiston milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasи mustaqil
tadqiqotchisi

Abduvaxobov G'iyo'siddin G'ayratjon o'g'li³

³Farg'onan davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasи v.b. dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola neologizmlarning tahlil birligi sifatida katta hajmli korpusdan aniqlash hamda ularning lingvistik xususiyatlari borasidagi fikrlar tahliliga tortilgan. Tadqiqotimizda "Yangi so'z va etamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi "Atamacom.uz" dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovalarni yaratish" nomli loyiha (2024-2025) doirasida olib borilayotgan ilmiy kuzatishlarimiz bayon qilingan. Unga ko'ra ingliz tili ta'sirida jamiyatimizning turli sohalarda kirib kelayotgan neologizmlar tilimiz lug'at tarkibiga faol ravishda kirib borayotganligi, ayniqsa, brendlар nomi, reklama peshlavhalari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, fan-tehnologiyadagi tushunchalar misolida yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье изучаются неологизмы как единица анализа большого корпуса и их лингвистические особенности. В нашем исследовании описаны наши научные наблюдения, проведенные в рамках проекта (2024-2025 гг.) под названием «Создание программной платформы atamacom.uz и мобильных приложений, автоматически предоставляющих узбекскую альтернативу новых слов и терминов на основе искусственного интеллекта» (2024-2025 гг.). В соответствии с этим, неологизмы, проникающие в различные сферы нашего общества под влиянием английского языка, активно входят в лексику нашего языка, особенно на примере названий брендов, рекламных слоганов, концепций одежды, продуктов питания, науки и техники.

Abstract

In this article, neologisms as a unit of analysis from a large corpus and their linguistic features are studied. Our investigation describes our scientific observations carried out within the project (2024-2025) called "Creation of the atamacom.uz software platform and mobile applications that automatically provide the Uzbek alternative of new words and terms based on artificial intelligence" (2024-2025). According to this, the fact that neologisms entering various areas of our society under the influence of the English language are actively entering the vocabulary of our language, especially in the example of brand names, advertising slogans, clothing, food, science and technology concepts.

Kalit so'zlar: neologism, kompyuter lingvistikasi, korpus, NLP, o'zbek tili, Covid-19

Ключевые слова: неологизм, компьютерная лингвистика, корпус, NLP, узбекский язык, Covid-19

Key words: neologism, computational linguistics, corpus, NLP, uzbek language, Covid-19

KIRISH

Zamonaviy o'zbek tilshunosligening zamonaviy sohalari globallashuv jarayoni tufayli, ayniqsa amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohasida qator masalalar ustida yana tadqiqot olib boorish kerakligini taqozo etmoqda. Gumanitar sohalarning aksariyatida tilshunoslikka aloqador yo'naliш Kompyuter lingvistikasining yondashuvlariи asosida o'rganilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Endilikda sohalarda kirib kelayotgan yangi tushunchalar o'zbek tiliga tilning ichki imkoniyatalaridan foydalanmagan holda to'g'ridan to'g'ri kirib kelmoqda. Tushuncha va mazmun o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash, tadqiq qilish yangicha nazariya va bilimlarni shakllantiradi. Ularni o'rganish, tahlil qilish olimlarning asosiy vazifalari sanaladi. Jumladan, tildagi real ijtimoiy hodisalarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish hozirda dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Xususan, o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi so'zlarning lingvistik jihatdan tadqiq qilish lug'atshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Neologizm" deb nomlanadigan termin davr bilan bog'liq yangilik xususiyatini bildirishi bilan ahamiyatlidir. Neologizmlar (yun. neos — yangi, logos — so'z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar⁸¹, (neo. yun. logos — fan, ta'limot; so'z, nutq). Tilda turli ehtiyojlar natijasida yangidan paydo bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi⁸².

Neologizm tabiatini va vaqt o'tasida kuchli bog'liqlik mavjud. Leksemaning kelib chiqish davriyligi korpus texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Dunyo tilshunosligi vakili Shippanning fikricha, neologizmnинг ikkinchi belgisi leksema bo'lib, uning kelib chiqish vaqtiz bizga ma'lum bo'lib, aynan shu vaqtida yangi so'z sifatida qabul qilinib umumiy lingvistik qo'llanish tarkibiga kiradi⁸³.

Kompyuter lingvistikasida esa neologizmlarni tahlil birligi sifatida o'rganishning asosiy jihatlari sifatida ma'lumot to'plash, katta hajmdagi matnlarni yig'ish kabi tushunchalarni keltirish mumkin. Yangi so'zlarning paydo bo'lishini kuzatish uchun katta hajmdagi matnlarni yig'ish kerak. Bu matnlar ijtimoiy media postlari, yangiliklar maqolalari, ilmiy maqolalar va boshqa manbalardan olinishi mumkin. Bu yangi so'zlarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini ko'rish imkonini beradi. Korpus asosida neologizmlarni turli xil aniqlash usullari mavjud. Avtomatik aniqlash usuli hisoblangan **frekans tahliliga** ko'ra yangi so'zlar odatda past chastotali bo'ladi. Shuning uchun, chastota bo'yicha filtrlar yordamida yangi so'zlarni aniqlash mumkin. Morfologik tahlilda yangi so'zlarning morfologik tuzilishini tahlil qilish orqali ularning yangi ekanligini aniqlash mumkin. Bundan tashqari inson omili yordamida avtomatik aniqlangan so'zlar qo'lda tekshiriladi va tasdiqlanadi. Bu jarayon noto'g'ri aniqlangan so'zlarni chiqarib tashlash va haqiqiy neologizmlarni tasdiqlash imkonini beradi. Semantik va sintaktik tahlilda yangi so'zlarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini o'rganish orqali ularning ma'nosini aniqlash mumkin. Geografik yangi so'zlarning turli geografik hududlarda qanday tarqalishini kuzatish imkonini funksiyalari asosida bajarish mumkin.

Turli tizimli tillarda neologizmlarni kirib kelishi tabiiy hodisa hisoblanib, ayniqsa, ingliz tilining ta'siri yuqori o'ringa ko'tarilgan. Manbara ko'ra, 1970-yilda ingliz tilida siyosiy termin sifatida kirib kelgan "liberation" atamasi "ayollarning huquq va mavqe barobarligi" masalasini ifodalashda kirib kelgan⁸⁴. O'zbek tilida *liberal* so'zi endilikda ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida keng ommalashdi: *liberal partiya*.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni alohida qayd etish o'rinniki, dunyoning siyosiy va iqtisodiy jihatdan globallashuvi, ayniqsa, kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq tushunchalarda umumatama sifatida e'tirof etilmoqda. Masalan, "Kun.uz" saytida iqtisodiyot, texnologiya, O'zbekistondagi voqealar, jahon xabarlariga oid matnlar korpusi olingan bo'lib, unga ko'ra elektron yoki qisqartma shaklda "e" va "kripto" prefiks orqali yangi so'zlar neologizm sifatida o'zbek tilining sohaviy atamalariga kirib kelganligini kuzatishimiz mumkin: *e-ta'lim, e-hukumat, e-imzo, e-raqam, e-mail, kriptobirja, kriptoaktiv va boshqalar*.

Qolaversa, Covid-19 pandemiyasi muloqot tilida bir qancha tushunchalarni ham kashf bo'lishiga, mavjudlarini ommalashishiga sabab bo'ldi. Masalan: *epidemiya, pandemiya, karantin, ijtimoiy masofa saqlash* kabi.

⁸¹ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil/ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>

⁸² <https://www.izohli.uz/words/NEOLOGIZM>

⁸³ Evelyn R. Meaning through Context – The Case of Discourse Neologisms: A Lexicological Approach to the Semiotic Nature and Function of Discourse Neologisms as an Extension to the Lexicographical Approach of Discourse Glossaries for COVID-19. 2022. <https://www.proquest.com/openview/a03d0e1e79f0f2777c736b15b736c463/1?pq-origsite=gscholar&cbl=18750&diss=y>

⁸⁴ Yiting Li Sources of English Neologisms // Proceedings of the 2nd International Conference on Social Psychology and Humanity Studies DOI: 10.54254/2753-7048/42/20240854. – P. 213.

TILSHUNOSLIK

Ijtimoiy tarmoqlar tufayli biz yuqorida keltirilgan neologizmlar hamda birliklar bilan tanishdik. Quyidagi jadvalda "Covid-19" epidemiyasi vaqtida ishlatilgan atamalarni ko'rishimiz mumkin.

Covid-19 epidemiyasi vaqtida ishlatilgan yangi so'zlar

So'zlar	Izohi
Ijtimoiy masofa	Karantin vaqtida kasallikni yuqib qolishining oldini olishga qaratilgan chaqiriq birlik
Uyda qoling	Karantin vaqtida zarur bo'limgan holatda tashqariga chiqmaslik uchun qo'llanilgan birlik
Izolyatsiya	Koronavirusni yuqtirib olgan shaxs o'zini jamiyatdan vaqtincha uzishni anglatuvchi birlik
Masofadan ishlash	Karantin vaqtida tashkilot xodimlarini ishlash qobiliyatini saqlab qolishda ishlatilgan birlik
Niqob	Karantin vaqtida kasallik yuqtirib olishga qarshi ishlatilgan so'zlardan biri
Virus	Aynan koronovirus kasalligini jamiyatda ishlatilish shakli
Karantin	Barcha tashkilot va idoralarning favqulodda holat rejimiga o'tganligini ifodalovchi birlik
Vaksina	Kasallikka qarshi emlanish lozim bo'lgan dorining turi.
Vaksinatsiya	Kasallikka qarshi emlanish lozim bo'lgan jarayonni bildiruvchi birlik
Emlash	Kasallikka qarshi vaksina qabul qilishni bildiruvchi birlik

Til tabiiy jarayon mahsuli sifatida ingliz tilidan kirib kelgan yuqorida qayd etilgan tushunchalarni lingvistik jihatdan o'zlashtirish imkoniyatiga ega. Neologizmlar so'z boyligini kengaytirish va yangi tushunchalarga moslashishda muhim rol o'yaydi, shuningdek, tilning kishilar o'rtaida kommunikativ vosita sifatida ahamiyatini oshiradi. Neologizm orqali yangi sohaviy tushunchalarning kirib kelishi tilga yangi elementlar qo'shadi, bu esa tilni boyitadi. Tilning jonli hayoti bilan bog'liq tushunchalar orqali uning ilmiy, ya'ni akademik darajasi ham ko'tariladi. Biroq chetdan kirib kelgan tushunchalarni tog'ridan to'g'ri olish va uni hech qanday til me'yorlariga amal qilmagan holda ommaga taqdim etish tilning sofligini buzadi, qolaversa, yangi tushunchalar avvaldan mavjud bo'lgan tushunchalarning o'mini egallab borishi mumkin. Masalan, hozirgi kunda tezpishar xizmat ko'rsatish obyektlarida ingliz tilidan olingan tushunchalar barchaning muloqot leksikoniga kirib ulgurdı. Bu esa kompyuter lingvistikasi va NLP sohasida ushbu nutq birliklarini tahlil qilish va ularning semantik konseptlarini aniqlash uchun o'zlashtirish darajasini aniq baholashimiz lozimligini ko'rsatadi. Masalan, "KFC" brendiga ega umumiy ovqatlanish joylarida ishlatiladigan set, *kombo*, *trendvich*, *maxibox*, *sendvich*, *donar*, *clabsendvich* kabi so'zlarni misol sifatida keltirish mumkin. Kiyim-kechaklarda ham yangi atamalar *oversayz*, *amerikanka*, *trench*, *xudi*, *jogger*, *kardigan*, *kilot*, *tregensi* kabi so'zlar misolda ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham tilga kirib kelayotgan yangi so'zlarni Korpus texnologiyasi asosida tahlil qilish asosiy vazifaga aylanmoqda. Bu so'zlarni til egalariga tushunarli qilib yetkazib berishga qaratilgan lug'atlarni shakllantirish tilshunolikning, xususan, kompyuter leksikografiyanining dolzarb vazifalaridan deyish mumkin.

Korpusdan olingan matnlar "Kun.uz" saytidagi ma'lumotlarga tayanib, ularni leksikografik jihatlari quyidagi jadvalda aks etgan:

ID	So'z	Turkum Ot	Derivatsiya Fe'l bilan	O'zashganlik holati (ingliz)	O'zashganlik holati (rus)	Morfologik tam oyl	Fonetik tam oyl	Shakily tam oyl	Izohli lug'atda mavjudligi
1	wayn	+	+ wayn olmoq	+ (ingliz)		+ (waynchi)	-	+	-

TILSHUNOSLIK

2	blog	+	+ blog olmoq	+ (ingliz)		-	-	+	(blogger)	+
3	blekout	+	+ blekout bo'lmox	+ (ingliz)		-	+	-		-
4	prikol	+	+ prikol qilish		+ (rus)	-	-	+		+
5	anekdot	+	+ anikdot aytish		+ (rus)	+ (anikdotchi)	+	-		+
6	target	+	-	+ (ingliz)		+ (targetchi)	-	-		+
7	mobilog rafiya	+	-		+ (rus)	+ (mobilografi yachi)	-	+		+
8	networki ng	+	-	+ (ingliz)		-	-	+		+
9	rolik	+	+ rolik olmoq, qilmoq		+ (rus)	-	-	+		+
10	reys	+	-	+ (ingliz)		-	+	-		+
11	storis	+	+ storis joylamox	+ (ingliz)		+ storischi	+	-		-
12	prosmot r	+	-		+ (rus)	+ prosmotrular	-	+		-
13	smm	+	-	+ (ingliz)		+ SMMchi	+	-		-
14	montaj	+	+ montaj qilmoq		+ (rus)	+ montajchi	-	+		+
15	akkaunt	+	-	+ (ingliz)		-	+	-		-
17	bodyka mera	+	-	+ (ingliz)		-	+	-		-
18	avatar	+	-		+ (rus)	-	-	+		+
19	dayjest	+	+ dayjest qilmoq	+ (ingliz)		-	-	+		+
20	startup	+	-	+ (ingliz)		-	-	+		+
21	wi-fi	+	-	+ (ingliz)		-	-	+		+

NLP va kompyuter lingvistikasiga doir tadqiqotlarda neologizm mavzusi keng doirada tahlilga tortilgan. Ayniqsa, yangi so'zlar bazasini yaratish va NLPda qayta ishlashtirishga doir ishlardan jahon ilm-fanidan bundan qariyb yigirma yil avval olimlar tomonidan olib borilgan ishlardan o'rnatilgan. Jumladan, Tsun-Jui Liu va boshqa mualliflar⁸⁵ tomonidan xitoy tili neologizmlarning korpus texnologiyasi yordamida ma'lumotlar bzasini yaratishga doir ishlardan diqqatimizni tortdi. Unga ko'ra 1999-yilda asos solingan, terminalga asoslangan Tayvandagi e'lonlar platformasi tizimi notijorat, bepul va ochiq onlayn hamjamiyat bo'lib, dunyodagi eng yirik BBS saytlaridan biri sifatida tan olingan. Undan 1,5 million ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar tomonidan har kuni 10000 dan ortiq maqolalar joylashtiriladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlarning ishlardan xitoy tilidagi neologizmlar korpusiga asoslangan tahlil uchun *pipeline framework* ishlab chiqilgan. Crawler modul yordamida matn tipidagi ma'lumotlar platformadan olinib, *cleaner* modul orqali qayta ishlangan ma'lumotdan nokerak bo'lgan ma'lumotlar o'chirib yuboriladi, n-gram modul bigram muqobillarni yaratib leksikondagi birliklar bilan solishtiradi va oxirida lingvistik modul qoidalarni kodlash orqali shovqinli ma'lumotlarni filtrdan o'tkazadi. Natija qilib olingan b-gram ma'lumotlar uch asosiy guruha ajratildi: so'zlar, so'z bo'limagan birliklar hamda neologizmlar. Demak, bunda dastlabki bosqichda transformatsiya qilingan barcha tokenlar bigramga o'tkaziladi, keyin lug'atda mavjud bo'limaganlar alohida leksikon sifatida

⁸⁵ Tsun-Jui Liu, Shu-Kai Hsieh, Laurent PREVOT Observing Features of PTT Neologisms: A Corpus-driven Study with N-gram Model // Proceedings of the Twenty-Fifth Conference on Computational Linguistics and Speech Processing (ROCLING 2013). –P. 250-259.

TILSHUNOSLIK

saralanadi hamda lingvistik qoidalardan foydalanib, lug'atda mavjud bo'lмаган со'злар hamda neologizmlar sifatida saqlanadi.

XULOSA

Til ijtimoiy hodisa sifatida o'zgaruvchan fenomen sanaladi. Har qanday ijtimoiy muhitdagi kishilar tomonidan ishlataladigan kommunikativ muloqot tili u yoki bu nutqning og'zaki leksikonida, ya'ni lug'atida namoyon bo'ladi. Jumladan, ayni vogelikka asoslanuvchi yangilik ottenkasiga ega bo'lgan neologizmlar tilshunoslikdagi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan muhim birliklardan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yiting Li Sources of English Neologisms // Proceedings of the 2nd International Conference on Social Psychology and Humanity Studies DOI: 10.54254/2753-7048/42/20240854. – P. 213.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil/ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>
3. <https://www.izohli.uz/words/NEOLOGIZM>
4. Evelyn R. Meaning through Context – The Case of Discourse Neologisms: A Lexicological Approach to the Semiotic Nature and Function of Discourse Neologisms as an Extension to the Lexicographical Approach of Discourse Glossaries for COVID-19. 2022. <https://www.proquest.com/openview/a03d0e1e79f0f2777c736b15b736c463/1?pq-orignsite=gscholar&cbl=18750&diss=1>
5. Tsun-Jui Liu, Shu-Kai Hsieh, Laurent PREVOT Observing Features of PTT Neologisms: A Corpus-driven Study with N-gram Model // Proceedings of the Twenty-Fifth Conference on Computational Linguistics and Speech Processing (ROCLING 2013). – P. 250-259.
6. Muhammad A, Zhiyong D., Iram A., Nisar M. Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19). Social Sciences & Humanities Open 4 (2021) 100201/ journal homepage: www.sciencedirect.com/journal/social-sciences-and-humanities-open
7. <https://kun.uz/>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>
9. Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.
10. Sharipbay, A., Shirinova, R., Abdurakhmonova, N., & Qodirova, Z. (2023). Ontological knowledge based models representing medicine terminology. Advances in Social Sciences and Economics, 1(1), 4.
11. Абдурахмонова, Н., & Бойсариева, С. (2023). Tabiiy tilni qayta ishlashda (nlp) okkazionalizmlarning morfem tahlili. Международный журнал искусство слова, 6(3).
12. Abdurakhmonova, N., Tulyiyev, U., Ismailov, A., & Abduvahabov, G. (2022). Uzbek electronic corpus as a tool for linguistic analysis. In Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022 (pp. 231-240).
13. Isroilov, J., & Abdurakhmonova, N. (2018). Personal names spell-checking—a study related to Uzbek. Journal of Social Sciences and Humanities Research, 6(02), 1-6.